

O'ZBEKISTONDA RESPUBLIKASIDA VOYAGA YETMAGAN SHAXSLAR AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11169719>

Xolmurodov G'ulom O'tkir o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

O'smirlik davri inson hayotining eng murakkab davrlaridan biri hisoblanib, ilk o'smirlik 11-13 yoshni, katta o'smirlik 14-15 yoshlarni o'z ichiga oladi. Bu davrning eng muhim xislati shundan iboratki, u bolalikdan o'spirinlik, yoshlikka o'tish davridir.

Bugungi kunga kelib, axborotlarni olish, ulardan foydalanish borasidagi aholining eng faol qismi bu yoshlar hisoblanadi. Ma'lum darajada ijtimoiy foyda keltirayotgan axborotlarning iste'molchilar, ya'ni yoshlar tomonidan olinishi yaxshi, ammo hech qanday asosga ega bo'lmagan, odamlarga zarar yetkazishga, o'z-o'zini o'ldirishga, hattoki, insoniyatga qarshi qurol ko'tarishga undovchi axborotlarga ham aynan yoshlar ega bo'lmoqdalar.

Hozirgi kunda internet saytlarida yoshlarga kuchli ta'sir etuvchi axborotlarni quyidagicha tasniflash mumkin.

Birinchi toifadagi axborotlar sirasiga yot, buzg'unchi g'oyalar (diniy ekstremizm va terorchilik g'oyalari, millatchilik, irqchilik, sadizm kabilar)ni kiritish mumkin.

Ikkinchi toifadagi axborotlar esa g'arb hayoti tarziga xos, o'zbek mentalitetiga zid odatlar va ko'nikmalarni targ'ib etadi. Bu ayniqsa, g'arb yoshlarining kiyinishi, odatlarini targ'ib qiluvchi maqolalar, kliplar, filmlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Uchinchi toifaga parnografik axborotlar kiritadi.

To'rtinchi toifaga esa hali tekshirilmagan, o'z isbotiga ega bo'lmagan turli hujumkor axborotlarni kiritish mumkin.

Internet saytlaridan tarqatilayotgan bu kabi yot g'oyalar va axborotlarni yoshlar tomonidan qabul qilinayotgani va uning oqibatlarini jahondagi barcha mamlakatlar, xalqlarni ham tashvishga solmoqda.

Bugungi kunda internet butun dunyoni qamrab olgan, jahonning 150 dan ortiq mamlakatida 150 millionga yaqin abonentga ega bo'lgan global kompyuter tarmog'iga aylandi. Tarmoqqa ulanish har oyda 7-10% ga o'sib bormoqda.

“O‘zbekiston Respublikasida 2016 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar Dasturi”[1] ning VIII yo‘nalishiga hamda “2016 yil O‘zbekiston Respublikasi aholisini zamonaviy axborot texnologiyalari hamda Internet tarmog‘i orqali ko‘rsatilayotgan axborot va mafkuraviy xurujlardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar Dasturi”ga ko‘ra yoshlarni yot g‘oyalar ta‘siridan himoya qilish, ularni sog‘lom e‘tiqod va milliy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo hamjihatlik ruhida tarbiyalash vazifalari izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Xususan, ta‘lim muassasalarda voyaga yetmaganlarni turli xil yot g‘oyalar ta‘siriga tushib qolishning oldini olishda mobil telefonlardan, internetdan to‘g‘ri foydalanish, ijtimoiy tarmoqlar orqali kimlar bilan muloqot qilayotganligi, o‘z joniga qasd qiluvchi, zo‘ravonlik va shavqatsizlikni targ‘ib qiluvchi o‘yinlar, farzandlarimiz telefonlaridagi behayolikni targ‘ib qiluvchi rasmlar, videolavhalarni nazorat qilib borish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan haftaning har payshanba kuni huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish kuni deb e‘lon qilindi. Shu munosabat bilan ta‘lim muassasalarda profilaktika kuni doirasida muntazam ravishda o‘quvchilarning davomati, mobil telefonlari qa‘tiy nazorat qilib borilmoqda. Ushbu tadbirlar natijasida voyaga yetmaganlarning “Ko‘k kit”, “Tinch uy” kabi o‘z joniga qasd qilishga undovchi virtual guruhlar ta‘siriga tushishining oldi olinmoqda[2].

Afsuski, voyaga yetmaganlar orasida internetga, kompyuter o‘yinlariga tobeklik, yoshlar ta‘lim-tarbiyasida “ommaviy madaniyat” ning salbiy ta‘siri sezilmoqda. Voyaga yetmaganlarning kiyinishidagi g‘arb madaniyatiga taqlid, hayotga yengil qarash, maqsadiga tez va oson yo‘l bilan erishish, ruhiyatidagi o‘zgarishlar, agressivlik, muomala madaniyatidagi qo‘pollik kabi salbiy illatlar ildiz otmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali turli xil yot g‘oyalar ta‘siriga tushib qolish holatlari uchramoqda.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida bu kabi salbiy illatlarning oldini olish borasida ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarning samaradorligini oshirishga erishish lozim. Ushbu tadbirlarning samaradorligi tadbirdan so‘ng o‘quvchilarning fikri o‘rganilmaydi. Ushbu tadbirlar o‘quvchining e‘tiborini jalb etmaydi. Natijada ular tadbirlarga majburan ishtirok etdi. Bu kabi masalalar tahlil qilinmaydi. Shuningdek, tadbirlar tizimli tashkil etilmaydi. Ta‘lim muassasasida faoliyat olib borayotgan psixologlarzning bu borada olib borayotgan ishlari talab darajasida emas. Psixologlarning malakasini oshirish va ularga uslubiy yordam ko‘rsatishga yetarli darajada e‘tibor qaratilmagan. Psixologlar tomonidan o‘quvchilar o‘rtasida

ushbu yo'nalishdagi mavzularga bag'ishlangan seminar-treninglar muntazam ravishda o'tkazilmaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "Virusi" tarqalishining oldini olishdir.

Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz"[3].

Axborot makonida globallashtirish va kuchli raqobat sharoitida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, yosh avlodning media savodxonligi va internetdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, milliy segmentni rivojlantirish, yoshlarni axborot-psixologik xurujlardan ximoya qilish texnologiyalarining nazariy asoslarini takomillashtirish yuzasidan amaliy ahamiyatga ega.

Bundan ko'rinadiki, o'smirlar zamonaviy axborot xurujlarining to'g'ridan-to'g'ri obyekti sanaladi. Shu bois, o'smirlar ongini zaharlovchi zid g'oyalar ta'siridan asrash va bu kabi axborotlarning to'riga ilinmaslik maqsadida axborotni xolisona baholash, axborotlar tizimida ijobiy va salbiy ta'sirga ega xabarlarini "filtr"lash – ya'ni, foydali axborotni qabul qilib, zararli axborotlar ta'siriga berilmaslik ko'nikmalarini shakllantirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Axborot huruji – bu gumanitar sohada bir ijtimoiy guruhning boshqa bir ijtimoiy guruh manfaatlaridan qat'iy nazar uni o'ziga tobe qilish, o'z qadriyatlariga ko'ndirishga qaratilgan uzoqni ko'zlagan siyosatidir. Bunda asosiy qurol rolini cheksiz ma'lumotlar makonida faoliyat yurgizayotgan elektron OAV o'ynaydi.

Shu tariqa axborot huruji muayyan tashqi kuchlar tomonidan ongi va qalbiga yot g'oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e'tiqodi va tuyg'ulariga ta'sir etishning mafkuraviy omillaridan bo'lib, jamiyat turmush tarzi va mentalitetidagi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun unga moddiy, ma'naviy, ruhiy ta'sir o'tkazish asnosida siyosiy maqsad va muddaolarni amalga oshirish majmuasiga aytiladi.

Rossiyalik mutaxassis D.Lavsovning fikricha, axborot qurollari tushunchasi ostida biror xalq, millat mentaliteti, madaniyati, ma'naviyati, dini, davlatning informatsion va harbiy tizimiga salbiy ta'sir o'tkazadigan maxsus dezinformatsion texnologik vositalarning muayyan tizimi yotadi[4].

O'smir yoshlarni yot g'oyalar qarmog'iga tushib qolishidan asrashda zaruriy choralarni ko'rish davr talabidir.

Birinchiidan, ochiq axborot xurujlari vaziyatida o'smir shaxsning o'zini o'zi himoya qilishini boshqarishda ayrim jihatlariga alohida e'tibor berish lozim.

Avvalo, ta'kidlanganidek, har bir inso uchun mustaqil fikr zarur. Mustaqil fikrga ega bo'lgan insongina o'ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma'lumotning mohiyatiga yetishi va unga nisbatan adekvat reaksiya ko'rsatishi, himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin.

- Ikkinchidan, yoshlar turli yot va bemaza axborot xurujlariga berilmasligi uchun biz ularda milliy g'ururni tinimsiz tarbiyalashimiz va bunda har bir fan predmeti va tarbiyaviy muloqotlardan oqilona foydalanishimiz zarur. Milliy g'ururning ahamiyati shundaki, bunday sifati bor inson boshqalarga qul bo'lishni, jumladan, axborot xurujlariga tobe bo'lmaydi.

- Uchinchidan, milliy g'ururi bor insonda imon, insof va diyonat tushunchalarini shakllantirish mumkin. Chunki inson qalbi bilan bog'liq bu qadriyatlar Internet va ochiq axborotlar olamida adashtirmaydigan "kompas" rolini o'ynaydi.

- To'rtinchidan, ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning avtoritetini, ular aytadigan har bir so'zning aniq mo'ljalli bo'lishini ta'minlash zarur. O'qituvchi aytadigan fikrlardan biri - axborot qanday bo'lishidan qat'iy nazar, u qabul qiluvchi insonning izmida bo'lishi, uning manfaatiga xizmat qilishi kerak. Buning uchun yovuz niyatli, yot g'oyalarni targ'ib etuvchilarning asl niyatlarini, ular say'i-harakatlarining oxir-oqibati nima bilan tugashini ochiq aytaverish lozim.

Shunday qilib, axborot hurujlariga qarshi turishning psixologik yo'llarini har bir murabbiy va o'quvchiga yetkazish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagilarni yodda tutish lozim:

a) aslida ataylab ta'sir etishga mo'ljallangan xabarni shaxs darrov qabul qilmaydi. Chunki, birinchidan, unda ilgaridan psixologik himoya mavjud va ikkinchidan, har qanday yangi narsaning singib ketishida muayyan axborot to'siqlari ham bo'ladi.

b) bunday sharoitlarda "uchinchi shaxs ta'siri" effekti ro'y beradi. Uning ma'nosi - "bu xabarga hamma ishonaversin, menga ta'sir qilmaydi" deb o'ylaydi shaxs, lekin ma'lum ma'noda shu fikr ta'sirida u axborot ta'sirida tushib bo'lgan bo'ladi. Xaligi fikrni o'zi uchun har ehtimolga qarshi hayolidan o'tkazadi;

v) ishontiruvchi chaqiriqlarga, masalan, reklama orqali yetkazilayotgan xabarlariga yosh bolalar juda o'ch bo'ladi va aynan ular ota-onani ko'ndiradi. 90% onalar aynan reklama qilingan tovarlarni bolalariga xarid qilib olib beradi. Xuddi shunday "Internet"ga ulanish, uyida zamonaviy kompyuterga ega bo'lish fikri ham bolalardan chiqadi, bunga ota-onani ko'ndiradilar ham.

g) xabarning asl maqsadi aslida ma'lumot berish emas, balki ishontirish ekanligini tushunish kerak.

Odamning ma'lumotlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning turli xabarlariga ishonqiramay munosabatda bo'lishi ham yuqori bo'ladi. Lekin xabarga ishonqiramay qarashimiz bizning uni qabul qilishimiz yoki qilmasligimizni bildirmaydi ya'ni agar biz ochiqdan ochiq yoshlarga "bu axborot manbaiga ishonmanglar, ular ataylab yolg'on ma'lumot bermoqda" desak, bu narsa ularning shu turli axborotni qabul qilmasliklarini kafolatlamaydi. Lekin "ogohlantirilgan odam qurollangan, muhofazalangan bo'ladi" degan tamoyildan kelib chiqib, birinchi ogohlantirishdan so'ng, yana o'z fikrimizni faktlar bilan asoslasak, ulardagi immunitet kuchliroq bo'ladi. Lekin shuni nazarda tutish lozimki, ogohlantirish muddatlari ham rol o'ynaydi. Masalan, psixologik eksperimentlarda bir hafta aavval ogohlantirishning ta'siri uzoqroq muddatdan ko'ra kamroq ekanligi ma'lum bo'lgan. Yoki uyda holi, komfort sharoitda qabul qilingan ta'sir bilan odamlar orasida, ko'pchilikning ichida g'aliz xabarni qabul qilish farqlanadi, chunki yolg'iz uydagi ta'sir skeptizmni kuchliroq namoyish etishi kuzatilgan. Ikkinchi tomondan, bevosita axborotni qabul qilish arafasidagi ogohlantirish qarshi argumentlar ishlab chiqish vaqtini kamaytiradi, undan sal avvalroq ogohlantirish esa inson miyasida ma'lumotni qayta ishlashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, 14.09.2016 yildagi O'RQ-406-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 14.03.2017 yildagi PQ-2833-son.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош ассамблеясининг 72 сессиясида сўзлаган нуқтидан. 2018 йил 19 сентябрь.

4. Голота А.С. (отв. секретарь), Докиш Ю.М., Журавлев Д.А., Крассий А.Б., Лисовец Д.Г., Попов А.Е., Разоренова Т.С., Сарана А.М., Терешин А.Е., Юдина Л.П. Высokотехнологичные методы лечения и реабилитации: Теория и практика. Ежегодник 2010 / Под ред. д-ра мед.наук проф. С. Г. Щербака. – Сестрорецк; СПб.: Реноме, 2011. – 200 с. ISBN 978-5- 91918-073-9.